



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 2 (4)  
2025**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2025 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**2**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2025**

MUNDARIJA

<b>Tilabov N.T.</b> Tadbirkorlikni rivojlantirish – budget barqarorligini ta’milash garovidir.....	7
<b>Qo‘chqarov I.X., Abulqosimov X.P.</b> Xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi sabablari va uning milliy iqtisodiy xavsizlikka ta’siri.....	11
<b>Muxitdinova K.A.</b> «Olmalik kon-metallurgiya kombinati» AJning investitsion salohiyatini baholashning ekotizimi.....	15
<b>Mamadjonov Sh.I.</b> Innovatsiyalar sharoitida tijorat banklarining kapitallashuvini oshirish masalalari.....	23
<b>Толаметова З.А.</b> Мехнат салоҳиятининг миқдорий компонентлари ва унга демографик дивидентни таъсири.....	27
<b>Gulmuratov S.N.</b> Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirishda tibbiyot turizmining ahamiyati.....	38
<b>Мўйдинов Э.Д.</b> МХХС га ўтиш шароитида кичик ва ўрта бизнес корхоналарида аудитни ўтказиш услубиётини такомиллаштириш масалалари.....	43
<b>Shadieva M.D.</b> Korxonalarining tashqi bozordagi faolligini tahlil qilishda strategik menejment yondashuvlaridan foydalanish uslubiyoti.....	51
<b>Махсудов Б., Касимова М.</b> Корхоналарнинг ижтимоий масъулиятли фаолияти бюджетини шакллантириш тамойиллари.....	57
<b>Abdul Jalil Mahama</b> The nexus of maqasid al sharia and capital structure theory in Islamic finance implementation in a Non-Islamic economic.....	64
<b>Saidova M.J.</b> Biznes muhitini yaxshilashda institutsional islohotlarning o‘rni (Andijon viloyati misolida).....	70
<b>Shukurov R.E.</b> O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish holati tahlili.....	75
<b>Амбарцумян А.А., Ульмасова Н.Р.</b> Цифровизация как драйвер внешнеэкономической деятельности Узбекистана.....	84
<b>G‘aybullaeva Z.R.</b> Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlarning o‘rni.....	91
<b>Sonayev S.N.</b> Sanoat korxonalarida resurs salohiyati xususiyatlari va tamoyillari.....	96
<b>Zufarova G.A.</b> Kambag‘allik va tengsizlik muammolari.....	100
<b>Хўжамуродов А.Ж.</b> Ўзбекистон иқтисодиёти трансформацияси жараёнида шаклланган фонд бозори инфратузилмаси таърифланишининг назарий жиҳатлари.....	104
<b>G‘ulomova V.A., Nigmatova D.Z.</b> Global savdoni rivojlanishida jahon savdo tashkilotiga a’zolikning roli: rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qiyinchiliklar.....	110
<b>Mirzayev A.T.</b> Turizm xizmatlari bozorida turistik destinatsiyalar faoliyati tahlili.....	115
<b>Saidova D.O.</b> Tijorat banklari faoliyati samaradorligini takomillashtirishda G. Minsbergning “5P” strategiyasini qo‘llash uslubiyoti.....	120
<b>Istamqulov D.Q., Danyarova F.B.</b> Milliy iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo‘nalishlari.....	125
<b>Ким Т.В., Абдиуалиева Г.А.</b> Теоретические основы трудовой миграции.....	129
<b>Захирова Г., Юсупова И.</b> Роль государственной поддержки в сфере туризма.....	136
<b>Бурнашева А.Д., Сабитов Р.А.</b> Искусственный интеллект и проблемы безопасности в системе образования.....	141
<b>Doniyev Sh.O‘.</b> O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tishining tamoyillari: Kelajak istiqbollari va mavjud muammolar.....	145
<b>Базарова Ф.Т.</b> Организация маркетинговой деятельности в легкой промышленности: Зарубежный опыт и его применение в Узбекистане.....	149
<b>Ochilova M.N.</b> Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish jarayonlari tahlili.....	153
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> O‘zbekistonda aholi daromadlarini oshirish orqali kambag‘allik muammosini bartaraf etish.....	157
<b>Abduraxmonov Sh.Sh.</b> Mamlakatimiz iqtisodiyotida bandlikka ko‘maklashishda xususiy tadbirkorlik faoliyatining hozirgi holati.....	163

<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва унинг рақобатбардошлигини йўналишлари.....	<b>171</b>
<b>Ikramova K.Sh.</b> Cultural policy and its impact on the management of cultural institutions: The impact of state and regional cultural policy on the development of cultural projects.....	<b>176</b>
<b>Baxshilloev J.Sh.</b> Turizmда sponsorlik marketingi: Yangi biznes imkoniyatlari va brendni tanitish.....	<b>181</b>
<b>Turdiyeva M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari.....	<b>184</b>
<b>Odinayeva N.F.</b> Oliy ta’lim muassasalari boshqaruvini xalqaro standartlarga integratsiyalash imkoniyatlari tahlili.....	<b>188</b>
<b>Эргашов Ё.С., Файзиёва Ш.Р.</b> Ўзбекистонда туризмнинг рақамли трансформацияси...	<b>194</b>
<b>Rejapov X.X., Muxibillayev M.A.</b> Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy strategiyasi va uni ishlab chiqishning iqtisodiyotdagi ahamiyati.....	<b>197</b>
<b>Тўлаков У.Т.</b> Кўчмас мулкни солиққа тортиш модели.....	<b>204</b>
<b>Қўзиёва Н.Н.</b> Иқтисодий тартибга солишда солиқ имтиёзларининг роли.....	<b>212</b>
<b>Ikromov A.Sh.</b> Oziq-ovqat korxonalarini mahsulotlari raqobatbardoshligini boshqarish samaradorligini baholash usullari.....	<b>216</b>

• Рақамли консерж меҳмондўстлик саноатида жуда кенг қўлланилади. Бу мобил илова бўлиб, унинг ёрдамида меҳмонлар қўшимча хизматларга буюртма беришлари ва тўлашлари, ресторанда столларни банд қилишлари, маҳаллий диққатга сазовор жойлар ҳақида билишлари, хонадаги ақлли технологияларни бошқаришлари ва меҳмонхона ходимлари билан мулоқот қилишлари мумкин.

Ўзбекистонда туризм саноатининг динамик ўсиши кўп жиҳатдан истеъмолчиларнинг кенг доираси учун мавжуд бўлган рақамли технологияларни жорий этишга боғлиқ. Бу жараён нафақат меҳмондўстлик соҳасида фаолият юритувчи компанияларнинг янги технологик ечимлари, балки давлат томонидан қўллаб-қувватланиши ҳам рағбатлантирмоқда. Мамлакат бўйлаб саёҳатларга эътибор қаратган ҳолда рақамли туризмни ривожлантириш учун энг қулай шароитлар яратилмоқда.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Искандар Урокбоев “Развитие туристической отрасли Узбекистана способствует росту благосостояния народа”. Ташкент. 06.10. 2024 г.
2. Овчаренко Л. А. Цифровизация как новая парадигма управления развитием туризма. Электронный журнал “Век качества” №4 2021 г.
3. <https://www.ungeneva.org/ru/newsmedia/news/2024/05/93652/mezhdunarodnyy-turizm-prodolzhaet-vosstanavlivatsya-bystryimi-tempami>

UDK: 334.72

### XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIYAVIY STRATEGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISHNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

### FINANCIAL STRATEGY OF BUSINESS ENTITIES AND THE SIGNIFICANCE OF ITS DEVELOPMENT IN ECONOMY

### ФИНАНСОВАЯ СТРАТЕГИЯ СУБЪЕКТОВ ХОЗЯЙСТВА И ЗНАЧЕНИЕ ЕЕ РАЗВИТИЯ В ЭКОНОМИКЕ

**Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich**

O‘zMu Iqtisodiyot fakulteti Moliya va kredit kafedrasini mudiri i.f.d., prof.

**Muxibillayev Muxammadamin Abdullajon o‘g‘li**

2-kurs Bank ishi va audit yo‘nalishi talabasi

### Anatatsiya

Maqolada korxonalarining moliyaviy strategiyasi moliyaviy ko‘rsatgichlarni analiz va sintez usullaridan foydalangan holda kelgusida bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy muammolarni oldindan prognozlash, uning oldini olish yo‘llari, tayyorgarlik va uni oqilona yo‘llar bilan bartaraf qilishdagi chora tadbirlarni qo‘llashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar va uning xorij tajribasi yoritiladi. Tadqiqot obyekti sifati Olmaliq kon metallurgiya kombitani tanlab olindi.

**Kalit so‘zlar:** Moliyaviy strategiya, moliyaviy taktika, moliyaviy tahlil, innovatsiya, korxonani missiyasi

В статье финансовая стратегия предприятий с использованием методов анализа и синтеза финансовых показателей приводит научные предложения и практические рекомендации, направленные на прогнозирование возможных социально-экономических и финансовых проблем в будущем, пути их предотвращения, подготовку и применение мер по их разумному устранению, а также свой зарубежный опыт. Выбрано качество объекта исследования.

**Ключевые слова:** Финансовая стратегия, финансовая тактика, финансовый анализ, инновации, миссия предприятия.

The article discusses the scientific proposals and practical recommendations aimed at forecasting possible socio-economic and financial problems in the future using methods of analysis and synthesis of financial indicators of the financial strategy of enterprises, ways of their prevention, preparation and rational elimination of them, as well as its foreign experience. The object of research was selected as the Almalyk Mining and Metallurgical Combine.

Keywords: Financial strategy, financial tactics, financial analysis, innovation, enterprise mission

XXI asr “Fan va innovatsiyalar” asri deb e’tirof etilayotgan bir davrda globallashuv jarayonlari barcha mamlakatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va savdo aloqalarini, korxonalarining moliyaviy strategiyasini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonning muhim bosqichlaridan biri sifatida mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi va moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq ravishda yuritish masalalariga yuqori qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining [2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [1] gi qaroriga asosan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o‘rinlarda — MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborotlari bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish belgilangan. Mazkur qaror moliya strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish, raqobatbardoshlikni oshirish va chet el investorlarini jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar (bundan keyin - XYuS deb yuritiladi) moliyasini rejalashtirishda moliyaviy strategiya va taktikalarining ularni moliyaviy barqarorligida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, investitsiya siyosatini shakllantirish va kelajakdagi xavflarni oldindan baholashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalar moliyaviy strategiyalari, shuningdek, xalqaro moliyaviy bozorlardagi integratsiya jarayonini tezlashtiradi.


Hozirgi O‘zbekiston davlati hududagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda O‘zbekistonda korxonalar moliyasi va moliya bozori iqtisodning boshqa tarmoqlariga qaraganda o‘shirish darajasi anchagina ortda qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri bu sohadagi xalqaro darajadagi bilimga ega bo‘lgan kadrlar yetishmovchiligi, bor kadrlarning esa bilim ko‘nikmalari yetarli darajada emasligi, korxonalaridagi moliya bo‘limlarining tizimlashtirilmaganligi, boshqa bo‘limlar bilan integratsion aloqalarining kamligi hisoblanadi. Natijada XYuSlarida moliyaviy resurslarni shakllantirish, foydalanishdek muhim masala qatoriga, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, o‘qitish va hodimning turli sabablarga ko‘ra ishdan ketishi hisobiga vujudga kelishi tadqiqot ishini dolzarbligini asoslaydi.

Korxonalarining moliyaviy strategiyasining nazariy asoslari, korxonaning moliyaviy strategiyasini tuzish va hayotga tadbiriq qilish, rivojlantirish borasida turli nazariy va amaliy tadqiqot ishlari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan. Jumladan, g‘arb iqtisodchi olimlarning ushbu yo‘nalishlardagi tadqiqot ishlari yuqori ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan. Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield, Jeffrey Jaffe, Bradford D. Jordan, Hamdi Driss. [2], EBrigham [3] rossiyalik olimlaridan K.E. Vlasova [4], V.V. Kovalev [5], o‘zbek olimlaridan A.V.Vahobov, T.S.Malikov [6], R.X. Karlibayeva [7] larning sohadagi ishlar yuqoridir.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, statistik tahlil kabi metodlar qo‘llanilgan. Ma‘lumotlar xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalaridan foydalanilgan. OKMK faoliyatidan olingan statistik ko‘rsatkichlar asosida moliyaviy strategiyalarning samaradorligi baholandi.

Korxonaning asosiy missiyasi – deb korxonalarining ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatishidan qat‘iy nazar, iste‘molchilarning qandaydir talabini qondirishga qaratilgan maqsadi hisoblandi va bu orqali foyda oladi. Lekin hozirgi sharoitda kichik va o‘rta biznes egalari hali kompaniya asosiy missiyasini bilmay, uni o‘z hodimlariga singdirmay turib yuqori natijalarni

ko‘zlaydilar. Kompaniya boshliqlaridan tortib oddiy hodimlarigacha buni bilishlari shart. Moliya bo‘limi shu bilan korxonaga “yurag”i hisoblanib, uning amalda asosiy missiyasiga erishish uchun strategiya va taktikalarni ketma-ketligini amalga oshiradi (1-rasm).



**1-rasm. Korxonalarining strategik rejalar xronologiyasi [8]**

“Korporativ moliya – yuridik va jismoniy shaxslarning o‘z mulklarini ixtiyoriy ravishda birlashtirish orqali tijorat tashkilotini tashkil etish va tashkil etilgan tijorat tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq pulli munosabatlarni anglatadi va moliya tizimining mustaqil sohasi hisoblanadi” [9]. Moliyaning aynan shu sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga taqsimlanadigan daromadlarning asosiy qismi shakllanadi va bu daromadlar iqtisodiy taraqqiyotning hamda jamiyat ravnaqining asosiy manbasi sifatida xizmat qiladi.

Moliyaviy taktika - kompaniya bozordagi talab va taklifni hisobga olgan holda kelgusidagi ishlab chiqarish hajmini belgilash, unga kerak bo‘ladigan yarim tayyor mahsulot, elektr, ish haqqi, tovarni olib kelish va yetkazib berish, arenda va kerakli texnika va texnologiyalar, marketing xarajatalariga tuzish bilan birga kerakli bo‘lgan pul mablag‘larini jalb qilishning kamxarj va oqilona yo‘lini topish va tashkillashtirish hisoblanadi. Bu odatda 1 oydan 1 yilgacha tuziladi. Kelgusi 1 yilda ketadigan barcha xarajatlarni byudjeti (hisoboti) moliyaviy taktika orqali amalga oshiradi.

Moliyaviy strategiya - esa moliyaviy taktikadan farqli o‘laroq, uzoq muddatli hisoblanib unda kompaniya yurib turishi uchun ahamiyati katta ko‘rsatgichlarni yaxshilash, yangi bozorlarni egallash, raqobatbardoshligini oshirish, kelgusidagi risklarni baholash va ularni kamaytirishga rejalar ketma-ketligini ishlab chiqishga qaratiladi. Moliyaviy strategiyalarning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Kapital boshqaruvi: Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash maqsadida ichki va tashqi moliyaviy resurslardan optimal foydalanish. Bu jarayon korxonaning daromad manbalarini diversifikatsiyalash va xarajatlarni boshqarishni ham qamrab oladi.

2. Investitsiya siyosati: Moliyaviy resurslarni samarali yo‘naltirish orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta‘minlash. XYuSlarning investitsion sohalarda qanday daromadlar va xarajatlarni ko‘zlashi va qancha muddat va mablag‘gacha tika olishi bilan bog‘liqdir.

3. Innoavatsiya va texnologiyalar siyosati: Kapitalning rentabellegini oshirishga qaratilgan har qanday hi-tech loyihalarni qo‘llab quvvatlash va ularni korxonaga faoliyatida amalga oshirish. Bu chet el tajribasi keng qo‘llanib, korxonaning yangiliklarga ajratilgan summasi kapitalning 5-10% tashkil qiladi.

4. Moliyaviy xavflarni boshqarish: Bozor o‘zgaruvchanligi, valyuta kurslari, foiz stavkalari kabi xavflarni baholash va ularni minimallashtirishga (heydjerlash) qaratilgan tadbirlarni qo‘llash. Bu, ayniqsa, korxonaning kelgusidagi risklarni kamaytirish va jiddiy xavflarni oldini olish bilan ko‘zga tashlanadi.

5. Likvidlikni boshqarish: Korxonaning qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishi uchun naqd pul oqimlarini samarali boshqarish, ularni nazoratga olish orqali korxonada o‘z faoliyatini tashqi omillardan himoya qilishga olib kelishi bilan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar uchun muhimdir.

Amalda moliyaviy strategiyalarda bir nechta kamchiliklar bor bo‘lib, asosiylari quyidagilar iborat:

1. Moliyaviy rejalashtirish vositalarining cheklanganligi: Mahalliy va regional korxonalarining moliyaviy resurslar va analitik tahlilarni yetarli emasligi, imkoniyat darajasini chegaralashi.

2. Moliyaviy xavflarni boshqarishning zaifligi: Korxonalar moliyaviy xavflarni aniqlashda yetarlicha ma‘lumotlarga ega emasligini va ularni yigishda xarajatlar yuqoriligi.

3. Bozor o‘zgarishlariga moslashuvchanlikning sustligi: Ko‘pchilik korxonalar raqobat sharoitidagi tezkor o‘zgarishlarga javob qaytarishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

4. Kapital yetishmovchiligi: Ko‘plab korxonalar arzon moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi sababli investitsion loyihalarni amalga oshirishda muammolarga duch kelmoqda.

5. Kadrlar yetishmovchiligi: Mehnat bozorida moliyaviy strategiya va taktika, moliyaviy anitika, statistik tahlil takliflarni beradigan ishchi kuchining kamligi, borlarining bilim va tajribalari yetarli emasligi

Shu boisdan O‘zbekiston moliya tizimi va moliya bozori yangi innovatsion, ilmiy asoslangan va tajribadan o‘tgan yangi tizimni o‘rnatishga qaratilgan rivojlantirish yo‘llarni topishi, uni amalda qo‘llashi orqali tadbirkorlik subyektlarini moliya instrumentlari shakllangan bozorda ishtirokini keng qamrovli, moliya resurslariga bo‘lgan talabni qondira oladigan, huquqiy jihatdan himoyalangan va sug‘urtalangan, shakllantirishda yangi qarorlar, rag‘batlantirish dastaklarini qo‘llagan holda moliya bozorini rivojlantirmog‘i zarur.

Shuningdek, moliyaviy taktika va moliyaviy tizimlashtirish, moliyaviy hisobotlarni halqaro standartlarga asosan olib borish, xorijiy investitsiyalarni mamlakat hududiga jalb qilish, moliya bozori ishtirokchi va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab quvvatlash, ularga imtiyozlar(subsidiya) berilayotganligi mamlakatda sohani rivojlantirishga qaratilganligidan dalolat beradi. Kadrlar yetishmovchiligini kadrlarni xalqaro moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo‘yicha 3 yillik bepul o‘qitish tizimini, yana 2 yilga uzaytirilisi sohani yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilganidan dalolat beradi. 2021-yildan boshlab firmalar o‘z moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga asoslangan holda tayyorlash belgilangan [10].

Shunday korxonalaridan biri, 2023 yilning eng yirik soliq to‘lovchilardan biri hisoblangan “Olmaliq Kon Metallurgiya Kombinati (okmk)” OAJ hisoblandi. O‘tgan yili kombinat umumiy 4 382 mlrd so‘m soliq to‘lagan bo‘lib sof foydasi 5 732 mlrd so‘mni tashkil qildi qariyb soliqdan oldingi foydasining 43% ni yoki umumiy daromadning 13.7% ni tashkil etmoq va bu ko‘rsatkich o‘tgan 4 yillikda dayerli o‘zgarishsiz qolmoqda (2-rasm).

Natijada korxonada uchun moliyaviy strategiya tuzishda asosiy e‘tiborni soliq yukiga qaratish kerakligini bildiradi. Chunki biznesda daromadni oshirishdan ko‘ra mahsulot sifatini buzmaganda xarajatlarni kamaytirish foydaliroq hidoblanadi. E‘tiborlisi shundaki, eng yuqori soliqlar atrof muhitni ifloslantirganligi va aksiz solig‘i bo‘lib, uning yuki koplighi tufayli korxonada yuqori xarajat qilmoqda. Korxonada uchun ekologik xavfsiz texnologiyalarni (masalan, carbon emission free) joriy etish zarur. Bu nafaqat soliqlarni kamaytirishga, balki ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Biznesni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida kapitalni to‘ldirishning barcha manbalaridan (kreditlar va kreditorlik qarzlardan) maksimal foydalanishga moliyaviy faoliyatni yo‘naltiribgina qolmasdan, moliyaviy menejment makrodarajada ham moliyaning asosiy, ya‘ni kompaniyaning barcha xo‘jalik-ishlab chiqarish faoliyatini pul mablag‘lari bilan ta‘minlash funksiyasini aniq bajarishi ham kerak.

	0	2023	2022	2021	2020
Daromadlar	31 840 134	31 167 252	31 236 273	23 323 154	
Mahsulot tannarxi	(16 115 738)	(14 717 231)	(15 132 923)	(12 224 664)	
<b>Umumiy daromad</b>	<b>15 724 396</b>	<b>16 450 021</b>	<b>16 103 350</b>	<b>11 098 490</b>	
Kutilayotgan kredit yo'qotishlarini qoplash	48 066	(134 314)			
Asosiy vositalarning qadrsizlanishi	179 449	(375 818)			
Sotish va tarqatish xarajatlari	(99 667)	(118 222)	(124 458)	(109 583)	
Umumiy va ma'muriy xarajatlar	(2 820 221)	(3 070 594)	(2 271 286)	(1 648 600)	
Boshqa operatsion daromadlar	326 906	388 998	243 996	142 264	
Boshqa operatsion xarajatlar	(116 483)	(497 744)	(248 328)	(214 255)	
<b>Operatsion foyda</b>	<b>13 242 446</b>	<b>12 642 327</b>	<b>13 703 274</b>	<b>9 268 316</b>	
Moliyaviy daromad	127 756	69 343	30 736	24 234	
Moliyaviy xarajatlar	(1 158 578)	(679 745)	(514 549)	(540 840)	
Assotsiatsiya va qo'shma korxonaning (zarar)/foyda ulushi	(1 248)	2 313	(10 665)	4 123	
Valyuta kursidagi zarar	(2 167 954)	(571 652)	(223 376)	(527 816)	
<b>Soliqdan oldingi foyda</b>	<b>10 042 422</b>	<b>11 462 586</b>	<b>12 985 420</b>	<b>8 228 017</b>	
Daromad solig'i bo'yicha xarajatlar	(4 381 924)	(4 991 689)	(8 077 159)	(4 566 924)	
<b>Yillik foyda</b>	<b>5 660 498</b>	<b>6 470 897</b>	<b>4 908 261</b>	<b>3 661 093</b>	
To'g'ri kelmaydigan sof boshqa umumiy daromad daromad yoki zarar	76 510	140 644	3 611	(21 222)	
<b>Yil davomida soliqlar to'langanidan keyin umumiy yalpi daromad</b>	<b>5 737 008</b>	<b>6 611 541</b>	<b>4 911 872</b>	<b>3 639 871</b>	

## 2-Rasm, OKMK” OAJ 2020-2023-yillardagi foydasining o‘shish tendensiyalar. [11]

Agar ana shu printsiplarga amalga oshirilsa va moliyaviy xizmat hisob-varag‘iga pullarning doimiy ravishda tushib turishini ta’minlasa, to‘lash muddati kelgan talabnomalar bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirsa, to‘lovlarning uzoq muddatli uzaytirilishiga yo‘l qo‘ymas, bu XYuSning mustahkam moliyaviy ahvoli (holati) va sog‘lom to‘lovga qobilligining asosiy belgisidir.

Korxonaning moliyaviy daromadlaridan va moliyaviy harajatlarining yuqori ekanligidan ko‘rinadi. (o‘rtacha 10 marta ) buning sababi esa korxonaning moliyaviy resurslarining muqobil varianti yo‘qligidadir. Shu sababdan “OKMK” OAJni davlat ulushini 2024 yil 19-noyabrda aksiyalarining 24.8% hususiy lashtirilishi korxonaga kapitaliga hajmi qariyb 12,2 trillion so‘m kapital jalb qilinishi kompaniya moliyaviy xarajatlari kamayishiga olib keladi. Korxonaga asosiy istemolchisi xorijiy davlat tadbirkorlari bo‘lgani bois chet el valyutasi bilan tuziladigan bitimlar “OKMK” OAJ faoliyatida valyuta kursining o‘zgarishlari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. 2022-yilda korxonaga 2 167 mlrd so‘m (daromadning 6,8%) valyuta xarajatlari uchun kelgan. Bu borada quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 2-son 2025 yil

1) Valyuta risklarini heydjerlash: So‘mdagi bitimlarni oshirish, xorijiy xaridorlar bilan shartnomalarni milliy valyutada tuzish.

2) Bank mahsulotlari: Imtiyozli valyuta paketlaridan foydalanish orqali valyuta xarajatlarini kamaytirish.

3) Diverfikatsiya: Turli bozorlarda valyuta risklarini tarqatish va ularni minimallashtirish.

Moliyaviy tahlil- xo‘jalik yurituvchi subyektning kelgusida pul mablag‘larini va ularning ekvivalentini ko‘paytirish imkoniyatini, moliyaviy majburiyatlarni o‘z vaqtida to‘lay olishi, kreditlarga bo‘lgan ehtiyojni, daromadlar bilan pul oqimlarini oqilona taqsimlashni, iqtisodiy resurslardagi potensial o‘zgarishlarni baholashni, shuningdek XYuS keyinchalik o‘zining moliyaviy ahvolini qanchalik muvaffaqiyat bilan yaxshilay olishini baholashning muhim usulidir. Moliyaviy strategiyalarni tuzishda moliyaviy tahlilardagi ma‘lumotlardan foydalangan holda korxonada moliyaviy reja va maqsadlarni belgilaydi. Ular albatta korxonada moliyaviy ahvoli ijobiy tarafga o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

1-jadval

“OKMK” OAJ 2019-2023 yillardagi aktiv va majburiyatlarining o‘zgarish tendensiyasi (trillion so‘mda) [12]

Ko‘rsatkichlar nomi/yillar	2023	2022	2021	2020	2019	Mutlaq o‘zgarish tendensiyasi 2023 y/2019 y nisbatan, (martada)
Uzoq muddatli aktivlar	43132.1	32360.4	21266.3	19900.3	17577.8	2.45
Joriy aktivlar	9256.9	10453.6	8736.7	5640.2	650.23	14.24
Kapital	10857.3	11025.5	15402.1	13038.1	10814.2	-
Uzoq muddatli majburiyatlar	21280.8	16734.1	1912.8	2162.5	9405.8	2.25
Joriy majburiyatlar	20520.9	15054.5	8 017.9	4 798.4	3860.1	5.32

Yuqorida korxonaning aktiv va passivlari berilgan. Ko‘rinadiki, korxonaning kapitali deyarli o‘zgarishsiz qolmoqda. Buning asosiy sababi korxonada davlat tashkiloti bo‘lgani va zaxiralar qilish hukumat ehtimoliy risklarni o‘z zimmasiga olgan holda foyda barchasi dividend sifatida olingan.

Uzoq muddatli aktivlariga qaraydigan bo‘lsak, korxonada 2022 yilda yangi kon o‘zlashtirgani bois sezilarli oshgan va korxonaning texnika va texnologiyalariga qo‘yilgan kapital qoyilmalar uzoq muddatli majburiyatlar tomonidan moliyashtirilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu korxonaning tashqi omillarga ta‘sir qilib qolmasdan, uning faoliyatiga ishonchni kamayishiga olib kelishi mumkin. Kelgusida korxonaga kerak bo‘ladigan pul resurslarni topishda banklar uning faoliyatiga shubxa uyg‘otishi, faoliyatini qayta ko‘zdan kechirishi va kredit berishda muammolarni keltirib chiqarishi xatoki, yoppasiga majburiyatlarni talab qilingan taqdirda kompaniya bankrotlik e‘lon qilishgacha borishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kapitalning likvidlik koeffitsienti (joriy aktivlar/joriy majburiyatlar  $\approx 0.45$  teng bo‘lib xalqora tajribada ko‘rsatkichning 1 dan past bo‘lishi qisqa muddatli likvidlikdagi qiyinchiliklarni ko‘rsatadi. Qisqa muddatli likvidlik deb korxonada aylanma kapitalning qancha qismi tashqi omillar hisobiga qoplanganini ko‘rsatadi. Ko‘rsatkich 1, 1.5 atrofida normal hisoblanib 1 dan pastida esa qisqa muddatli majburiyatlar boshqa xarajatlarni ham qoplayotgani, korxonada deyarli tashqi manba hisobiga faoliyat olib boryotgani va faqatgina uzoq muddatli aktivlarining ma‘lum qismigina o‘ziga tegishli e‘kanligini bildiradi. Aytib o‘tish kerakki, odatda, xususiylarda bunday holat kuzatilmaydi. Bunda esa hukumatning kafilligi borligi bunday xolatni yuzaga keltirmoqda.

Uzoq muddatli barqarorlik koeffitsienti (uzoq muddatli aktivlar / kapital)  $\approx 3.97$ . Bu uzoq muddatli aktivlarning katta qismini kreditlar hisobiga moliyalashtirishini anglatadi. “OKMK” OAJ avval ta’kidlanganidek moliyaviy strategiya va taktikalardagi muammolarni xal qilishda moliyaviy strategiyalarni shakllantirish kerak.

Hozirgi O‘zbekiston davlati hududagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston moliyasi va moliya bozori iqtisodning boshqa tarmoqlaridan o‘shir borasida anchagina ortda qolmoqda. buning asosiy sabablaridan bir bu sohadagi xalqaro darajadagi bilimga ega kadrlar yetishmovchiligi, bor kadrlarning esa bilim ko‘nikmalarga tola qonli ega emasligi, korxonalaridagi moliya bo‘limlarining yetarli daraja tizimlashtirilmagani, boshqa bo‘limlar bilan integratsion aloqalarining kamligining asos sifatida moliyaviy menejment, moliyaviy strategiya va taktika, ko‘rsatgichlar tahlili orqali kelgusi davr trendlarini prognozlash borasida darslik, maloqa, ilmiy jurnallarda etiborsiz qolyotganidir. Ayniqsa, “OKMK” OAJ misolida moliyaviy strategiyalarni takomillashtirish, ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor vazifalar hisoblanadi.

“OKMK” OAJ moliya tizimi va moliyaviy strategiyasi rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar quyifagilardan iborat:

1. Moliyaviy menejmentni takomillashtirish: Moliya bo‘limlarini raqamlashtirish va ularning boshqa bo‘limlar bilan integratsiyasini yaxshilash. Umuman olganda korxonani qayta tizimlashtirish.

2. Kadrlar tayyorlash: hodimlar bilim va malakalarini oshirish borasida o‘quv kurslari, treyninglar va xorijda amaliyot o‘tash borasida chora tadbirlarni qo‘llash.

3. Valyuta risklarini boshqarish: Chet el xaridorlari bilan shartnomalarni milliy valyutada tuzish va imtiyozli valyuta paketlari, fond bozori derevativlaridan valyuta risklarini minimallashtirishda foydalanish.

4. Investitsiyalarni rag‘batlantirish: Innovatsion va ekologik xavfsiz texnologiyalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash.

5. Likvidlikni oshirish: Joriy aktivlar va majburiyatlar nisbatini yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli qarori.
2. Xasanov B. A, Raximov M. Y, Muqumov Z.A., Aliqulov A. I, Jumanova A. B, Xajimuratov N.SH. Xasanova R.B. “Moliyaviy tahlil” Toshkent. “IQTISODIYOT” 2019. 442-450 b.
3. R.X. Karlibayeva Korporativ moliya. (O‘quv qo‘llanma).-T.: -«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. 180bet
4. “Financial Managament” Kaplan published. 2023. Bershire p. 40-52. asosida qayta ishlandi
5. <https://www.lex.uz/docs/-4746047>
6. Vahobov.A.V. Malikov. T.S “MOLIYA” Toshkent - 2012, «NOSHIR», 218-272 b.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Moliya>
8. Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield, Jeffrey Jaffe, Bradford D. Jordan, Hamdi Driss. “Corporate finance” 9<sup>th</sup> Edition. February 1, 2022. 120-150 b.
9. Qurbonov. O, U. “Moliyaviy strategiyalarni shakllantirishda strategik moliyaviy tahlilning o‘rni” magisterlik dissertasiya ishi, TOSHKENT – 2017 8-25 b
10. Brigham, E. “Financial management” London: South-Western College Pub, 2011. –1186 p.
11. Брейли Р., Майерс С. Принципы корпоративных финансов / М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2014. – 1008 с.
12. <https://agmk.uz/> moliyaviy hisoboti
13. Власова К.Е. “Финансовая стратегия: теоретические основы и методы разработки” – М.: Проспект, 2014.
14. Ковалев, В. В. “Финансы организации” М.: Проспект, 2014. – 352 с.